

TEATR SAN'ATI: RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI



Mahmud Rashidov

O'zDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati"
kafedrasi professori

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-14>

Annotatsiya: Mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada erkin ijodiy hamkorliklarni yo'lga qo'yish va spektakllarning badiiy saviyasini oshirish masalalari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada teatr san'atining rivojlanishidagi zamonaviy tamoyillar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: San'at, taraqqiyot, islohot, dramaturgiya, teatr san'ati, spektakl, zamonaviy, me'yoriy hujjat, renessans.

Аннотация: В нашей стране проводится большая работа по дальнейшему развитию театрального искусства, совершенствованию деятельности театров и укреплению их материально-технической базы, налаживанию свободного творческого сотрудничества на местах, повышению художественного уровня постановок. В статье рассматриваются современные принципы развития театрального искусства.

Ключевые слова: Искусство, развитие, реформа, драматургия, театральное искусство, спектакль, модерн, нормативный документ, Возрождение.

Abstract: In our country, a lot of work is being done to further develop theatrical art, improve the activities of theaters and strengthen their material and technical base, establish free creative cooperation at the local level, and improve the artistic level of productions. The article examines modern principles of developing theatrical art.

Key words: Art, development, reform, drama, theatrical art, performance, modern, normative document, Renaissance.

Hozirgi kunda shiddatli zamon, hayotning o'zi barchamizning oldimizga o'ta muhim va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, el-yurtimizni turli xavf-xatarlardan asrash, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga ehtiromlar ruhida barkamol insonlar etib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Bugungi tezkor jarayonda ya'ni tahlilali davr mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at massalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, aynan shulardan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish Konsepsiyasida teatr san'atini rivojlantirish va bu borada asosiy bajarilishi lozim bo'lgan barcha muammolar tizimli ko'rsatib o'tilgan. Bu asosiy hujjatda belgilab berilgan asosiy vazifalarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabr sanasida, "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida yurtimizdagi teatrlar faoliyati, teatrlar boshqaruvi, teatr auditoriyasini kengaytirish va teatrlarni madaniy turizm markazlariga aylantirish hamda boshqa ko'plab vazifalar, ularning bajarilishi xususida fikrlar berildi. Ushbu qarorda teatrlar boshqaruvini yaxshilash uchun bugun nimalar qilish kerakligi borasida muhim vazifalar belgilab berildi. Masalan:

1. 2025-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrga qadar huquqiy eksperiment tariqasida O'zbekiston davlat yoshlar teatri hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berildi.

2. Teatrlar faoliyati, shu jumladan, ularda namoyish etilayotgan asarlarni reklama qilish xarajatlarini moliyalashtirish uchun davlat buyurtmasi asosida asarlarni yaratish uchun rejalashtirilgan byudjet mablag'larining 10 foizigacha miqdorda mablag' yo'naltiriladigan bo'ldi;

3. Teatrlar brendini yaratish, faoliyatini targ'ib qilish, marketing va qo'shimcha pulli xizmatlarni yo'lga qo'yishda xususiy sektor xizmatlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

4. Bosh rejissorlarning badiiy faoliyatiga teatr direktorining aralashuviga yo'l qo'yilmasligi belgilandi.

5. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri huzurida ushbu teatrning amaldagi shtat jadvali doirasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Teatr rejissyorlari akademiyasi tashkil etildi.

Teatr rejissyorlari akademiyasi davlat buyurtmasi asosidagi spektakllarni sahnalashtirish jarayoniga ijodiy ko'maklashadi;

Teatr rejissyorlari akademiyasida davlat teatrlari rejissyorlari har ikki yilda, shu jumladan, yangi tayinlangan rejissyorlar o'z faoliyatini boshlashidan oldin kamida ikki oy davomida individual dastur asosida amaliy mashg'ulotlardan o'tadi, shuningdek, ushbu dastur doirasida yangi janr va yo'nalishlardagi spektakllarni sahnalashtirish amaliy tajribadan o'tkaziladi. Teatr rejissyorlari faqat Teatr rejissyorlari akademiyasida malaka oshiradi;

Teatr san'ati asrlar davomida insonlarni tarbiyalovchi, ma'naviyatini shakllantiruvchi qudratli vosita hisoblangan. Shu sababli bo'lsa kerak, sahna san'ati mavqeini yanada oshirish, moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasida takomillashtirish, zamonaviy binolarini qurib foydalanishga topshirish, eng muhimi, yangi teatrlar tashkil etish borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda teatr san'atiga, ijodkorlarga e'tibor kuchaydi. Birgina misol, 2020-yilda 39 teatrning 15 tasiga spektakl sahnalashtirish uchun 2 milliard 400 million so'm davlat buyurtmasi ajratildi. Ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublika qo'g'irchoq teatrlari, yosh rejissyorlarning "Debyut" ko'rik festivali, ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar tashkil etildi.

Pyesalar tanlovlari o'tkazilib, g'olib mualliflar taqdirlandi. Dramaturglarning bir necha yillik qalam haqidan qarzdorlik bartaraf etilib, 41 nafar muallifga qalam haqi to'lab berildi. O'zbekiston Bolalar va yoshlar teatrlari xalqaro assotsiatsiyasiga a'zo bo'ldi. Teatr ijrochilik san'atida tomoshabinlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va shakllantirish, insonni axloqiy, aqliy va badiiy jihatdan takomillashtirish maqsadida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi madaniy muassasadir.

Teatrlar va uni boshqarayotgan rahbarlar – direktor, bosh rejissorlarning faoliyatini ijobiy baholash mumkin. Lekin o'ylaymanki bu yetarli emas. To'g'ri har yili rejaga muvofiq ma'lum bir spektakllar sahnalashtiriladi, ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra teatrlarga yil davomida spektakl tomosha qilish uchun keluvchilar soni juda kam foizda. Yangi qarorda aynan teatrlarning reytingi e'lon qilinishi borasidagi yangilik ham o'ylaymanki teatrlarning sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Katta reja va maqsadlarni o'ylab shunga qarab intilish tinmay izlanish kerak. Direktor teatrning moddiy texnik bazasini yaxshilash, yosh iste'dodli kadrlarni kashf qilish, tijoratlashtirish masalasini yo'lga qo'yish, gastrol safarlarini amalga oshirish kabi tashkiliy masalalarni hal qilishi kerak. Badiiy rahbar esa ijodiy tomondan teatr nufuzini oshirish, jamiyat va xalqimizga aynan bugungi kunda zarur bo'layotgan ma'naviy ozuqani berishga mos spektakllarni sahnalashtirish ustida o'ylashi lozim.

San'atkorlar millatning kayfiyati, ruhiyati bilan ishlaydigan ko'ngil odamlari, ruhiyat odamlari hisoblanadilar. Bugunning vazifasi ham, maqsad-muddaosi ham bitta. Tarixiy va shiddatli davrning ko'lamdor ma'naviyatini, madaniyatini, ma'rifatini, san'atini xalqqa yetkazish, xalqimiz ongu tafakkurida, ruhiyatida olib borilayotgan madaniy islohotlarning mazmun-mohiyatini yana ham jonlantirishdan iboratdir. Mustaqillikdan so'ng o'zbek teatr san'atini yanada rivojlantirishga uning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston

Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbek milliy akademik drama teatrlarining 100 yillik yubileyida quyidagi jummalarni keltirib o'tdilar: "Ma'lumki, dunyodagi har qaysi xalq, har qaysi davlatning ma'naviy taraqqiyot darajasi avvalo uning madaniyati, san'at va adabiyotida, jumladan, teatr san'atida yaqqol namoyon bo'ladi. El-yurtimiz bu davrda qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni, quvonchli va tashvishli kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa, ularning barchasi o'zbek madaniyatining ko'zgusi bo'lmish ushbu teatr faoliyatida, uning sahnasida namoyish qilingan asarlarda o'z aksini topgan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz."

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Madaniyat sohasini rivojlantirish uchun yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmogda. Ularni hisobga olgan holda, madaniyat sohasida tub burilish yasaldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 2021-yilning 20-yanvar kuni "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Qonun 8 bob 53 moddadan iborat bo'lib, madaniy faoliyatning qay tartibda olib borilishi va madaniyat tashkilotlarining ishlash mexanizmlari batafsil yoritilgan. Madaniyat vazirligi tomonidan tartibga solinadigan va rivojlantirish belgilangan jihatlar ham aniq qilib yozilgan. Jumladan, madaniyatshunoslikni, teatrshunoslikni, san'atshunoslikni, musiqashunoslikni va madaniy faoliyat sohasidagi boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish, oliy ta'lim tashkilotlarida hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanishini takomillashtirish yuzasidan choralar ko'radi.

O'zbek teatr san'atining jahon bilan hamnafas bo'lishi, xalqaro tajriba almashinuvi hamda integratsion jarayonlari jadal rivojlanmogda. Jumladan, joriy yilning Joriy yilning 22–26-may kunlari TURKSOY shafeligida ilk bor O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mezbonligida I xalqaro Turk dunyosi talabalar teatr festivali bo'lib o'tdi. Festivalni ochib berish hamda tashkilotchilarga omad tilash maqsadida Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ham tashrif buyurdilar. Festivalga qardosh mamlakatlarning teatr guruhlaridan tashqari bir qator soha mutaxassisleri ham tashrif buyurdi. Ulardan biri taniqli turk dramaturgi va teatrshunosi Yetkin Yuksal Turkiyaning "O'zbekistan festival izlenimlari" nomli maqolasi mashhur "Tiyatro" gazetasida chop etildi. Ro'znomada ijodkorning festival to'g'risidagi taassurotlari o'rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ularni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2024-yil 23-noyabr. Yangi O'zbekiston gazetasi. 238-son (1299).
2. Ikramov S.T., Xolmo'minov M.Z. San'at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari /Uslubiy qo'llanma/ -Toshkent: "IJOD-PRINT", 2023.-256 b.
3. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasining Qonuni O'RB –668 20.01.2021. lex.uz.
4. O'zbekistonning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti xrestomatiyasi (Eng yangi davr.) Ikkinchi qism.Institutsional o'zgarishlar, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash, san'at va sport sohalarining rivojlanishi. – Toshkent: "Tafakkur", 2017. – 320 b.bo'lyapti.